https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 16-24-guruh talabasi **Abdusalomova Shahnoza**

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGI

Annatatsiya: Ushbu maqolada oila hamkorligi, uning mohiyati, qolaversa Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar mazmuni va MTT da tashkil etiladigan individual ishlar hamda tarbiyalanuvchining oilasiga tashrifi haqida aytib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Ota-onalar, pedagog, tizimli hamkorlik, ijtimoiy sheriklik,

oilaviy tarbiya, individual ishlar, yillik ish reja, amaliy anjumani, birgikdagi faoliyat, metodika, dolzarb masalalar, ijobiy fazilatlar.

Bolalarni barkamol tarbiyalash ularning ota-onalari va jamoatchilikning ta'lim jarayonida faol ishtirokisiz erishib bo‘lmaydi, ota-onalarning MTT ning oila bilan hamkorligi borasidagi qarashlari turlicha bo‘lganligi bois MTT sharoitlarda ota-onalarning qoniqish jihatlari o‘zgarib bormoqda. Ota-onalarning pedagogik faoliyat sohasiga jalb etilishi, ularning ta'limi o‘yin faoliyati jarayoniga qiziqishi o‘z bolasi uchun juda muhimdir. [4:12]

MTT pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri - bu hamkorlik va oilada ijobiy muloqot sohasini kengaytirish, ota-onalar va bolalarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish rejalarni amalga oshirishdir.Bu pedagog tomonidan turli shakllardan amalga oshirilishi mumkin. Masalan, kognitiv faoliyat shaklidagi bu bilimlar, ko‘nikmalar bo‘yicha jamoaviy shartlar, faoliyat sohalari bo‘yicha ijodiy hisobotlar, bilimlar bellashuvi va ijodiy bayramlar, ochiq eshiklar kunlari va boshqalar. Ota-onalar va pedagoglar tomonidan bolalar bilan birgalikda faoliyat metodikasi mavzusi belgilanadi.Pedagog vazifalarni tuzadi, guruhlarni shakllantirishga, tayyorgarlik ishlarini tashkil etishga yordam beradi, ota-onalar esa bezatish va rag‘batlantiruvchi mukofotlarni tayyorlashda ishtirok etishadilar. Ota-onalar

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

o‘zlarining shaxsiy yoki aralash guruhlarini yaratib, tadbirlarda bevosita ishtirok etishlari mumkin. [4:42]

Maktabgacha ta’lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorligi maktabgacha ta’lim sifatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik bolalarning ta’lim olishi, farovonligi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. MTT ota-onalari va mahalliy hamjamiyat bilan o‘zaro munosabatlarning turli shakllarini amalga oshirish mumkin:

- bolalar rivojlanishining dolzarb masalalari bo‘yicha ota-onalarning malakalarini rivojlantirish va takomillashtirish (seminar, ota-onalar klubi, trening, maslahat, konferensiya, davra suhbati, pedagogik mehmonxonalar va boshqalar);
- muntazam ravishda muloqot (kommunikatsiya)ni ta’minlash (ma’lumotlarning mavjudligini ta’minlagan holda pedagoglarning ota-onalar bilan online va offline uchrashuv va yig‘ilishlarni o‘tkazish, elektron xabarlar almashish, bolalarning rivojlanishi haqida ma’lumot berish va boshqalar);
- ota-onalarni guruh va/yoki maktabgacha ta’lim tashkilotiga ko‘ngilli faoliyatga jalb etish (rivojlantiruvchi muhitni yaratishda ishtirok etish; xavfsiz muhitni ta’minlash; o‘yinlar tashkil etish; qo‘shimcha xizmatlarni ko‘rsatish; ko‘rgazmalar tashkil etish; musiqa, bayram va festivallarni tashkil etish va ularda bevosita qatnashish);
- ota-onalarga bolalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish bo‘yicha ko‘maklashish (masalan: uyda ta’limni berish, resurslar bilan ta’minlash, bolaning rivojlanishiga doir tavsiyalar berish, ota-onalarni qiziqtirgan masalalar bo‘yicha maslahatlar berish);
- ota-onalar va bolalarning birgalikdagi faoliyat yuritishini tashkil etish (bolalar va ota-onalar ishtirokida ekskursiyalar, o‘yinlar, mehnat faoliyatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish);

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

- mahalla bilan hamkorlikda bolalarni tarbiyalashda yaqin hamkorlik o‘rnatish (mahalla faollari, nuroniylar, ota-onalar ishtirokida bolalarning axloqiy va ma’naviy tarbiyasi, milliy qadriyatlarimiz asosida shakllanishini ta’minlash);
- ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish (mahalliy jamoatchilik, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sog‘liqni saqlash muassasalari, turli NNT, ota-onalar qo‘mitasi, nodavlat ta’lim tashkilotlari, homiylar bilan hamkorlik);
- bolalarning sog‘lig‘i va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish (bolaning sog‘lig‘i va xavfsizligini muhofaza qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, ota-onalarni pedagog va tibbiy xodimlar ishtirokida sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish, sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish bo‘yicha ota-onalar uchun treninglar tashkil etish);
- bolani maktabgacha ta’lim tashkilotiga moslashtirish va u yerda o‘zini erkin his qilishiga ko‘maklashish (pedagogik jamoa va ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda bolaning maktabgacha ta’limga oson o‘tishini ta’minlash uchun individual va guruhiy moslashtirish ishlarini tashkil etish, maxsus burchaklar yaratish, ochiq eshiklar kuni va bayramlar tashkil etish). [3:13]

Maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada tarbiyalashni , ota-onalar bilan hamkorlikni bundan keyin yanada takomillashtirish yo’llarini izlab topish oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlash maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlari pedagogik omillar, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchilar va tarbiyachi-uslubchilarning muhim vazifasidir. Bolalar maktab ta’limiga tayyorgarligiga ta’sir etuvchi omillar haqida gapirar ekanmiz maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada tarbiyaning ota-onalar bilan hamkorlikda, bundan keyin yanada takomillashitirish yo’llarini izlab topilsa maqsadga muvofiq bo’lar edi. Oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlashda MTT xodimlari, pedagogik olimlar bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchi va metodistlarning o’rni juda katta. Bola kuning asosiy qismini MTT da o’tkazsa

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ham inson komoloti uchun eng muhim bo'lgan omillardan biri tarbiyaning tamal toshi oilada qo'yiladi. Shu sababli ham maktabgacha ta'lim pedagogikasining asosiy maqsadi bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlashda MTT bilan oila hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. MTT ning oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad , mazmun bo'lishi kerak. MTT ning ota- onalar bilan ishlashida keng aholi ommasi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin.Ota-ona va oila bilan individual ishlash bunda oilaga tarbiyachining borishi ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahat berish, ota-onalarni bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotidagi hayoti bilan tanishtirish kabilar kiradi. Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlislar, ota-onalar maktabi, anjumanlar,shanbaliklar,savol-javob kechalari. [2:92]

MTT da tarbiya jarayonini tashkil etish muammolari bo'yicha ota-onalarini an'anaviy yillik ilmiy- amaliy anjumani shakllantiriladi. Oila tarbiyasiga doir dolzarb muammo aniqlab olinadi. MTT va oilada butun yil davomida uni nazariy va amaliy o'rganish amalga oshiriladi.Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlari ishonalarni bo'lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari MTTga taklif qilinadi. Bunda ota-onalar bolaning navbatchilik vazifasini qanday bajarayotganini yoki sayrga chiqishdan avval qanday kiyinayotganini ko'radilar va bolalarning o'quv va imkoniyatlariga ishonch hosil qiladilar.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi. Masalan:

•Bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to'g'risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;

•MTT ning yillik ish rejasi to'g'risida;

•Ota-onalar jamoatchiligining ishi haqida.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Bu masalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari,maslahatlar,konfirensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi. [2:97]

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar mazmuni.Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola tarbiyasining samarali bo'lishi uchun ota-onalar bilan muntazam va tizimli hamkorlik olib borilishi muhimdir. Bola rivojlanishida oilaning o'rni beqiyos bo'lganligi sababli, tarbiyachi-pedagoglar ota-onalar bilan doimiy aloqada bo'lib, ularni bolani har tomonlama rivojlantirish jarayoniga jalb etishadi.Bunday ishlar avvalo ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirishga qaratiladi. Bu maqsadda turli ma'rifiy suhbatlar, seminar-treninglar, psixologik maslahatlar, ma'ruzalar tashkil etiladi. Ularda ota-onalarga bolalar psixologiyasi, yosh xususiyatlari, individual yondashuv haqida tushunchalar beriladi.Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-onalar ishtirokida turli tarbiyaviy tadbirlar o'tkaziladi. Bayramlar, sport musobaqalari, tanlovlar, ko'rgazmalar va ochiq mashg'ulotlarda ota-onalarning faol ishtiroki bolaning ijtimoiylashuviga va oilaviy munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Bu esa bolaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.Ota-onalar bilan olib boriladigan yana bir muhim ish — bu ularning fikr va takliflarini inobatga olib, ta'lim-tarbiya jarayonini yanada boyitishdir. Tarbiyachi va ota-ona o'rtasida o'zaro ishonch va hurmatga asoslangan munosabat bo'lishi, bolaning barkamol rivojlanishini ta'minlaydi.

MTTda tashkil etiladigan individual ishlar ota-onalar bilan ishlashda muhim o'rin tutadi. Individual ish shakllaridan biri – tarbiyalanuvchining oilasiga tashrif buyurishdir. Bu shakl tarbiyachi va ota-onalarga juda yaxshi ma'lum, biroq, ikki holatda tashrif buyurish to'xtatilishi zarur.

Oila tashrif buyurish oldindan kelishilgan holda amalga oshirilishi zarur. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, bugun 90% bolalar ota ham, ona ham ishlaydigan oilalarda tarbiyalanadi. Demak, har qanday vaqt ham

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tarbiyalanuvchiga tashrif buyurish uchun qulay emas. Noo‘rin tashrif buyurish biror ish bilan mashg‘ul bo‘lib turgan ota-onalarda norozilik uyg‘otishi mumkin. Ba’zan shunday ham bo‘ladiki, tarbiyachi uyga borganda kim bilan suhbatlashishni ham rejalashtirmaydi. Oila tarbiyasiga doir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “taklif bo‘yicha tashrif buyurish” tarbiyachining oilaga tashrif buyurishiga nisbatan tarbiyalanuvchilarning salbiydan ijobiy, faolgacha bo‘lgan radikal munosabatlarini o‘zgartiradi.

Oilaga tashrif buyurishdan ko‘zlangan maqsad – oila sharoiti, bolaning oiladagi xulqi qiziqishlari, ota-onasi va oila a’zolari bilan tanishish, shuningdek, ota-onalarni bola tarbiyasidagi samarali metodlari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalarni o‘rganib, ommalashtirishdan iborat.

Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do‘st, bola tarbiyasida murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a’zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo‘lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga har gal borishidan avval o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yishi, qaysi mavzuda suhbatshinishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o‘ylangan bo‘lishi kerak. Suhbat shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-ona bir-birlarini yaxshi tushunishlari, ular o‘rtasida ishonchli aloqa o‘rnatilishi darkor. Oilaga borishidan oldin tarbiyachi shu oilada onalarning fe’l-atvori, oilaviy munosabatlari, bolaning rivojlanish darajasi to‘g‘risida ma’lum tasavvurlarga ega bo‘lishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar hurmati va ishonchini qozonmoq uchun avval ota-onalarga bolaning ijobiy fazilatlari to‘g‘risida fikr, mulohazalarini bilib oladi va bolaning uyidagi hayotini qanday tashkil etish kerakligi, unga nimalarni o‘qib va hikoya qilib berish mumkinligi, bolaning kun tartibi, uni oila mehnatida qatnashtirish, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ta’lim-tarbiya ishlari mazmuni va usullari bo‘yicha tavsiyalar beradi. Albatta, tarbiyachining oila bilan olib boradigan ishida bolaning yoshi, imkoniyatlari, o‘ziga xos xususiyatlari e’tiborga olinadi. Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlari

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ishonarli bo‘lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a’zolari MTTga taklif qilinadi. Bunda ota-onalar bolaning navbatchilik vazifasini qanday bajarayotganini yoki sayrga chiqishdan avval u qanday qiynayotganini ko‘radilar va bolalarning o‘quv va imkoniyatlariga ishonch hosil qiladilar. Oilaga borishning maqsad va mazmuni tarbiyachining rejasi va hisobotida, kundalik daftarida aks ettirilishi kerak. Tarbiyachi har bir bolaning oilasiga yiliga kamida ikki marta borishi kerak.[1:192]

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar — bu bolalar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, ikki tomonlama hamkorlikka asoslangan tizimli jarayondir. Bu hamkorlik bola uchun yagona tarbiyaviy muhit yaratishga xizmat qiladi.Oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘zaro birdamlikda harakat qilgandagina, bolalarning barkamol, axloqan to‘g‘ri, aqliy va jismoniy jihatdan rivojlangan bo‘lib voyaga yetishiga zamin yaratiladi. Har ikki tomon ham bolaning tarbiyasi uchun mas’ul ekanini chuqur his etib, hamkorlikka tayyor bo‘lishi kerak. Ana shunda maktabgacha yoshdagi har bir bola quvnoq, ijobiy muhitda o‘sib, mustahkam bilim va odob asoslarini egallaydi.Shunday ekan, bolalarimizning baxtli va muvaffaqiyatli kelajagi uchun maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan oila o‘rtasidagi hamkorlik davomiy va tizimli asosda qurilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sadikova Sh, Yokubova Z. Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish. / Darslik.-Toshkent: "NIF MSH".2024. -326 b

2.Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna.Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. Darslik. - Toshkent: “METODIST NASHRIYOTI” , 2024. - 324 bet.

3. "Ilk qadam" Maktabgacha ta’lim tashkilotining o‘quv dasturi.- Toshkent-2022. - 96 b

4."Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorli". Metodik qo‘llanma.Toshkent. -2020.